

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**5150600-Vokal san’ati (An’anaviy xonandalik) yo‘nalishi**  
**bitiruvchilarining fanlararo yakuniy davlat**  
**attestatsiya sinovi**

**DASTURI**

*2023/2024 o‘quv yili*




**TUZUVCHILAR:**

- O.Topildiyev** NamDU Musiqa ta'limi va madaniyatshunoslik kafedrası mudiri.
- B.Abdurahimov** NamDU Musiqa ta'limi va madaniyatshunoslik kafedrası o'qituvchisi.

**TAQRIZCHILAR:**

- M.Mirabdullayev** NamDU Musiqa ta'limi kafedrası katta o'qituvchisi.
- Sh.Matyoqubov** Yunus Rajabiy nomidagi O'MMSI dotsenti

5150600-Vokal san'ati (*An'anaviy xonandalik*) yo'nalishi bitiruvchilarining fanlararo yakuniy davlat attestatsiya sinovi dasturi "Musiqa ta'limi va madaniyatshunoslik" kafedrasining 2024-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_dagi № \_\_\_-sonli majlisida muhokama qilingan hamda tasdiqqa tavsiya etilgan.

**Kafedra mudiri**

**O.Topildiyev**

5150600-Vokal san'ati (*An'anaviy xonandalik*) yo'nalishi bitiruvchilarining fanlararo yakuniy davlat attestatsiya sinovi dasturi "Pedagogika" fakultetining 2024-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_dagi № \_\_\_-sonli majlisida muhokama qilingan hamda tasdiqqa tavsiya etilgan.

**Fakultet dekani****M.Boltayeva**

5150600-Vokal san'ati (*An'anaviy xonandalik*) yo'nalishi bitiruvchilarining fanlararo yakuniy davlat attestatsiya sinovi dasturi Namangan davlat universiteti Kengashining 2024-yilda № 9 -sonli majlisida muhokama qilinib, tasdiqlangan.



3

**A.To'xtaboyev**

## **I. UMUMIY QOIDALAR**

1. 5150600-Vokal san'ati (An'anaviy xonandalik) yo'nalishi bitiruvchilarining fanlararo yakuniy davlat attestatsiya sinovi dasturi (keyingi o'rinlarda – Dastur) O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2009 yil 22 maydagi 160-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risida"gi Nizom, 2020 yil 14-avgustdagi 418-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "5150600-Vokal san'ati (An'anaviy xonandalik) bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari" (keyingi o'rinlarda – Malaka talablar) hamda № V5150600-20 tartib raqami bilan ro'yxatga olingan o'quv rejasining (keyingi o'rinlarda – O'quv rejasi) umumkasbiy va ixtisoslik fanlari o'quv dasturlari asosida tuzildi.

2. Fanlararo yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi (keyingi o'rinlarda – Attestatsiya sinovi) O'zbekiston Respublikasining oliy ta'limga oid qonun hujjatlarida belgilangan tartibga ko'ra, bitiruvchilarning Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlaridan biri hisoblanib, unda ta'lim yo'nalishi xususiyati, iqtidori va xohishiga ko'ra bitiruv malakaviy ishi yozish istagini bildirmagan, o'quv rejasidagi ta'lim dasturlarini to'liq o'zlashtirgan bitiruvchi kurs talabalari ishtirok etishlari shart.

3. Attestatsiya sinovini topshirishga o'quv reja va fan dasturlarini to'liq tugatgan va o'quv rejasida nazarda tutilgan barcha sinovlardan muvaffaqiyatli o'tgan talabalarga ruxsat beriladi.

4. Attestatsiya sinovi O'quv rejasining umumkasbiy va ixtisoslik fanlarining barchasini qamrab oladi hamda sinov topshiriqlari ushbu fanlar o'quv dasturlari asosida tuziladi.

5. Attestatsiya sinovi fanlar mazmuniga qo'yiladigan talablar bilan bir qatorda, talaba tayyorgarligining Malaka talablarida bitiruvchiga qo'yiladigan umumiy talablarga javob bera olish darajasini aniqlashga yo'naltiriladi.

## **II. ATTESTATSIYA SINOVI SHAKLI VA MUDDATI**

6. 2023/2024 o'quv yilida 5150600-Vokal san'ati (An'anaviy xonandalik) yo'nalishi bitiruvchilarining Attestatsiya sinovi amaliy (og'zaki) shaklda o'tkaziladi.

7. Dastur, Universitet Kengashi tomonidan tasdiqlangan sanadan boshlab, o'quv yili yakuniga qadar Attestatsiya sinovi shakli o'zgartirilishi mumkin emas.

8. Attestatsiya sinovi universitet o'quv jarayoni grafigiga asosan, o'quv ishlari prorektori tomonidan tasdiqlangan muddatlarda o'tkaziladi va kamida bir oy oldin talabalarga yetkaziladi.

### **III. ATTESTATSIYA SINOVI SAVOLNOMASI**

9. Attestasiya sinovi savolnomasi ta'lim yo'nalishi Malaka talablarining
- bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga;
  - kasbiy faoliyatga;
  - umumkasbiy va ixtisoslik fanlariga qo'yilgan talablarni qamrab oladi.

#### **III.1. Yakuniy davlat attestatsiyasida ijro dasturi talablari**

9.1. Shashamaqom, Xorazm maqomi, Farg'ona-Toshkent maqom yo'llaridan turkum (shahobcha - Oraz, Mug'ulcha, Savt, Qalandar, Bayot, Dugoh, Chorgoh) ijro etish.

9.2. Xalq ijodiyoti na'munalari (ijro va murakkabligi jihatidan kasbiy musiqa darajasiga tenglashtirilgan asarlar)dan ijro etish.

9.3. Bastakorlar asarlari (Komiljon Jabbaorov, Jo'raxon Sultonov, Orifxon Xotamov, Fattahon Mamadaliyev, Komiljon Otaniyozov, Faxriddin Sodiqov, Muhammadjon Mirzayev, Abduhoshim Ismoilov, Maxmudjon Tojiboyev va boshqa bastakorlar ijod na'munasi)dan ijro etish.

9.4. Ovoz imkoniyatini to'la ko'rsatib beraoladigan ihtiyoriy shakldagi asar ijro etish.

10. Attestatsiya sinovi savolnomasi ta'lim yo'nalishi O'quv rejasida keltirilgan quyidagi umumkasbiy va ixtisoslik fanlar dasturlari asosida shakllantirildi:

Talaba yakuniy davlat attestatsiyasini 4 o'quv yili davomida mutahassislik fanlari asosida o'zlashtirgan bilim-ko'nikmalarini qo'llay olishi.

#### **Maqom yakka xonandalik**

1. Maqom yakka xonandaligida maxorati: ko'nikma, malaka va tajriba.
2. Xonanda maxorati va individual ijro uslubi
3. Bastakorlik ijod na'munalaridan "Ko'chamdan janon o'tganda"
4. Farg'ona – Toshkent maqom yo'llaridan "Dugoh III"
5. Farg'ona – Toshkent maqom yo'llaridan "Chorgoh V"
6. Farg'ona – Toshkent maqom yo'llaridan "Bayot II"
7. Farg'ona – Toshkent maqom yo'llaridan "Bayot V"
8. Farg'ona – Toshkent maqom yo'llaridan "Ushshoq"
9. Maqom yakka xonandaligining xususiyatlari.
10. Yakka xonandalik ijro uslublari
11. Yakka xonandalikda ko'nikma, malaka va maxorat.

12. Mashxur yakkaxon xofizlarning faoliyati va ijro uslublari.
13. Rost maqomidan “Savti kalon”
14. Farg‘ona – Toshkent maqom yo‘llaridan “Chorgoh I”
15. Farg‘ona – Toshkent maqom yo‘llaridan “Chorgoh II”
16. Farg‘ona – Toshkent maqom yo‘llaridan “Girya I”

### **Maqom asoslari**

1. O‘n ikki maqom tizimi tarkibidagi va Shamaqom tarkibida ham mavjud turkumlardan ijro etish
2. Xorazm maqomlari tarkibiga Shamaqom tarkibidan asl holatda o‘tgan asarlardan ijro etish
3. Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llarining asosiy va qo‘shimcha qisim na‘munalaridan ijro etish
4. Bastakorlik na‘munalaridan maqomlar tarkibiga kirgan asarlar ijro etish
5. Xorazm maqomlari tarkibida qaladar va doston asarlardan ijro etish
6. Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llarining qo‘shimcha turkumli, turkumsiz qisimlari (*Miskin, Qalandar*) misolida ijro etish

### **An‘anaviy xonandalikni o‘qitish uslubiyoti**

1. Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari turkumli asar Bayot I
2. Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari turkumli asar Bayot II
3. Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari turkumli asar Bayot III
4. Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari turkumli asar Bayot IV
5. Dugoh maqomining II-guruh sho‘balaridan Qalandari dugoh
6. Dugoh maqomining II-guruh sho‘balaridan Samandari dugoh
7. Rost maqomining II-guruh sho‘balaridan Savti ushshoq
8. Rost maqomining II-guruh sho‘balaridan Savti ushshoq talqinchasi
9. Rost maqomining II-guruh sho‘balaridan Savti ushshoq qashqarchasi
10. Rost maqomining II-guruh sho‘balaridan Savti ushshoq soqinomasi
11. Rost maqomining II-guruh sho‘balaridan Savti ushshoq uforisi
12. Buzruk maqomining II-guruh sho‘balaridan Rok
13. Buzruk maqomining II-guruh sho‘balaridan Rok talqinchasi
14. Buzruk maqomining II-guruh sho‘balaridan Rok qashqarchasi
15. Buzruk maqomining II-guruh sho‘balaridan Rok soqinomasi
16. Buzruk maqomining II-guruh sho‘balaridan Rok uforisi
17. Qalandar I
18. Qalandar II
19. Abdurahmonbegi I va II
20. Tanovor I

### **Ansambl sinifi**

21. Dugoh maqomining I-guruh sho‘basidan Sarahbori dugoh
22. Dugoh maqomining I-guruh sho‘basidan Sarahbori dugohni 1-6 taronalari
23. Bastakor asarlaridan: O.Xotamov musiqasi, Furqat she’ri, Sarviqomat
24. Bastakor asarlaridan: A.Dadayev musiqasi, Xolis she’ri, Yaxshi do‘stlar
25. Bastakor asarlaridan: E.Ro‘zmetov musiqasi, Shokiro she’ri, Senga men bitta so‘z aytaman
26. Bastakor asarlaridan: D.Axmadsox musiqasi, Muhammad Yusuf she’ri, Qora qumg‘on
27. Bastakor asarlaridan: K.Otajonov musiqasi, Oshiq g‘arib va Shoxsanam dostonidan, Sanamni
28. Bastakor asarlaridan: G‘.Xojiqulov musiqasi, E.Voxidov she’ri, Lola sayli
29. Bastakor asarlaridan: A.Dadayev musiqasi, Qadam Said Murodov so‘zi Xabar yubordim
30. Bastakor asarlaridan: O.Xotamov musiqasi, Chustiy she’ri, Ovvora bo‘lmadeydi
31. Bastakor asarlaridan: M.Mirzayev musiqasi, Furqat g‘azali, Surating
32. Bastakor asarlaridan: Xalq kuyi, Habiyyiy va Sobir Abdulla she’ri, Farg‘ona ruboyisi
33. Bastakor asarlaridan: Xalq kuyi, Qoriy she’ri, Chapandozi qalandar
34. Bastakor asarlaridan: B.Abdurahimov musiqasi, Xabib Sadulla she’ri, Muborak Navro‘zing

### **Maqom xonandaligi asoslari**

1. “Soqinomai savt kalon” Rost maqomining II-guruh sho‘balaridan.
2. “Xanuz” Farg‘ona-Tshkent maqom yo‘llarida vujudga kelgan musiqiy na‘muna.
3. “Abdurahmonbegi” Farg‘ona-Tshkent maqom yo‘llarida vujudga kelgan musiqiy na‘muna.
4. “O‘ynasin” Bastakorlik ijod na‘munalaridan.
5. “Mubtalo bo‘ldim senga” Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llaridan.
6. “Ey vox sanam” Bastakorlik ijod na‘munalaridan.
7. “Qora qosh” Bastakorlik ijod na‘munalaridan.
8. “Qo‘shchinor” Bastakorlik ijod na‘munalaridan.
9. “Ul kun janon” Bastakorlik ijod na‘munalaridan.
10. “Sarahbori Oromijon” Farg‘ona-Tshkent maqom yo‘llari.
11. Qashqarchai sarahbori oromijon ” Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari.

12. “Soqinomial sarahbori oromijon” Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari.

#### **IV. ATTESTASIYA SINOVI NATIJALARINI BAHOLASH MEZONI**

11. Attestasiya sinovi bo‘yicha talabalar bilimni baholash O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirining 2018 yil 9 avgustdagi 19-2018-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Oliy ta‘lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to‘g‘risida”gi Nizom talablari asosida amalga oshiriladi.

12. Attestasiya sinovi bo‘yicha talabalar bilimni baholashda 5 baholik tizim qo‘llaniladi.

13. Talabaning Attestasiya sinovidagi natijalari quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

13.1. Talaba ushbu bandlar (9.1; 9.2; 9.3; 9.4;)da keltirilgan talablarni to‘laqonli bajarsa, asarlarni sof intonatsion ijrosiga erishsa, asarlarni ijro yo‘llarini to‘g‘ri ijro etsa, musiqiy asarlarni mazmunini ochib bera olsa, asarni shakli va uslubini tushungan holda tahlil qila olsa, ijrochilik va imperovizatsiya ifodaliylikni vositalari, musiqaning mazmuni, shakl va uslubini yoritib bera olganda – “5” (a‘lo) baho;

13.2. Talaba ushbu bandlar(9.1; 9.2; 9.3; 9.4;)da keltirilgan talablarni to‘laqonli bajarsa, asarlarni sof intonatsion ijrosiga erishsa, asarlarni ijro yo‘llarini to‘g‘ri ijro etsa, musiqiy asrlarni mazmunini ochib bera olganda – “4” (yaxshi) baho;

13.3. Talaba ushbu bandlar(9.1; 9.2; 9.3; 9.4;)da keltirilgan talablarni to‘laqonli bajarsa, asarlarni sof intonatsion ijrosida xatolarga yo‘l qo‘ysa, asarlarni ijro yo‘llarini noaniqliklar yo‘l qo‘ysa, asrni shakli va uslubini tushungan holda tahlil qila olmaganda – “3” (qoniqarli) baho;

13.4. Talaba ushbu bandlar(9.1; 9.2; 9.3; 9.4;)da keltirilgan talablarni bajarmasa, asarlarni sof intonatsion ijrosiga erishmasa, asarlarni ijro yo‘llarini noto‘g‘ri ijro etsa, asrni shakli va uslubini tushunmasdan, tahlil qila olmaganda – “2” (qoniqarsiz) baho.

14. Talaba baholash natijalaridan norozi bo‘lgan taqdirda Attestasiya sinovlari natijalari Komissiya tomonidan e‘lon qilingan vaqtdan boshlab 24 (yigirma to‘rt) soat davomida apellyasiya berishi mumkin.

14.1. Talabaning apellyasiya murojaati universitet rektori buyrug‘i asosida tuziladigan Apellyasiya komissiyasi tomonidan 2 (ikki) kun ichida ko‘rib chiqiladi va uning natijasi bo‘yicha qaror qabul qilinadi.

#### **V. ATTESTATSIIYA SINOVI BO‘YICHA TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI VA QO‘SHIMCHA USLUBIY KO‘RSATMALAR**



15. Dasturni o‘zlashtirish bo‘yicha foydalanishga tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati;

**Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar ro‘yxati**  
**Asosiy adabiyotlar**

1. D.Q.Qodirov.Oltin meros.(An'anaviy xonandalik.) G'.G'ulom nomidagi nashriyot-manbaa ijodiy uyi.Toshkent-2016.
2. Matyakubov O. Maqomot. - T.: "Kamalak". 2004.
3. Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir. - T.: "O'zadabiynashr". 1963.
4. Rajabov I. Maqomlar. -T., 2004 .
5. Ibrohimov O. Farg'ona - Tashkent maqomi. - T., 2006.
6. Matyakubov Sh. An'anaviy xonandalikda o'qitish uslubiyati. -T., 2015.
7. Yu.Boqixonov.Xonanda ovozini yo'lga qo'yish va an'anaviy xonandalik. Uslubiy qo'llanma.Namangan.2014.
8. Matyakubov Sh. An'anaviy xonandalikda o'qitish uslubiyati. -T., 2015.
9. Matyakubov Sh. An'anaviy ijrochilik tarixi - T., 2015.
10. Matyakubov Sh. An'anaviy ijrochilik san'ati tarixi -T., 2019.

**Qoshimcha adabiyotlar**

1. “Qo'shiq - mening borlig'im” (R.Tursunov va M.Dadaboeva bahsi). O'zbekiston adabiyoti va san'ati” haftanomasi.2008.25 aprel.
2. Zamira Suyunova.Yosh xonandalar talqinida so'z talaffuzi muammolari. Ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari.Toshkent-2006.23 bet.
3. Rajabiy Yu. Musiqa merosimizga bir nazar. - T., 1978.
4. Shashmaqom (Buxoro maqomlari), II O'zbek xalq muzikasi. V tom. - T.,O'zadabiynashr. 1959.
5. Xorazm maqomlari II O'zbek xalq muzikasi, VI tom - T.,O'zadabiynashr.1959.
6. Q.Mamirov. “Qo‘shiqlar xo‘r asarlari” O‘quv qo‘llanma T 2006;
7. M.Jalilov. “Qo‘shiqlar xrestiomatiyasi” Toshkent.
8. M.Yusupov. “Xorazm maqomlari” T 1972-1979.
9. R.Yunusov.”Maqom san’ati” T 2018.
- 10.D Ergasheva.A Hakimov. “Saraxbor” T 2017.
- 11.E.Ochilov “Umrboqiy qo‘shiqlar” N 2016.
- 12.Y Rajabiy. “Shashmaqom"1.2.3.4.5.6.
- 13.Karimova M. An’anaviy yakka xonandalik – T., 2018.

**VI. YAKUNLOVCHI QOIDALAR**

16. Dasturda belgilangan qoidalar O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi

Vazirlar Mahkamasining, shuningdek ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari tomonidan qabul qilingan qoida va me'yorlarga zid kelsa, yuqori turuvchi organlarda belgilangan qoida va me'yorlar amal qiladi.

17. Dastur Universitet Kengashi tomonidan tasdiqlangandan so'ng, yakuniy davlat attestatsiyasi boshlanishidan uch oy oldin talabalar e'tiboriga yetkaziladi hamda universitetning rasmiy saytiga joylashtiriladi.

18. Fakultet dekanlari tomonidan bitiruvchi kurs talabalariga mazkur Dastur asosida tayyorgarlik ko'rish va maslahatlar berish uchun zarur sharoitlar yaratiladi.

19. Ushbu Attestatsiya sinovi o'z vaqtida, shaffof o'tkazilishida fakultet dekani M.Boltayeva shaxsan mas'ul.

20. Dastur etiladigan asarlar ro'yhati va komissiya a'zolari ilova qilinadi.







